PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 **Impact Factor –7,212**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ORFOGRAFIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Olimova Nilufar Qosimjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti, boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Matkarimova Shohrizoda
Farg‘ona davlat universiteti
Pedagogika-pixologiya va san’atshunoslik fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich 25.35-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24347844

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy va pedagogik asoslari yoritilgan. O‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda savodxonlikni oshirish usullari, orfografik xatolarni bartaraf etish hamda formativ baholash vositalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, samarali pedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodlarning ahamiyati asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, orfografik ko‘nikma, savodxonlik, imlo, yozma nutq, fonematik ong, pedagogik metodlar, formativ baholash, mustaqil fikrlash.

Abstract: This article examines the theoretical and pedagogical foundations for developing orthographic skills in primary school students. It analyzes methods for improving literacy—taking into account the age-related and psychological characteristics of students—as well as strategies for addressing orthographic errors and utilizing formative assessment tools. Furthermore, the significance of effective pedagogical approaches and modern teaching methods is substantiated.
Keywords: Primary education, orthographic skills, literacy, spelling, written language, phonemic awareness, pedagogical methods, formative assessment, independent thinking.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и педагогические основы формирования орфографических навыков у учащихся начальной школы. Анализируются методы повышения грамотности — с учетом возрастных и психологических особенностей школьников, — а также стратегии работы с орфографическими ошибками и инструменты формирующего оценивания. Кроме того, обосновывается значимость эффективных педагогических подходов и современных методов обучения.
Ключевые слова: Начальное образование, орфографические навыки, грамотность, правописание, письменная речь, фонематический слух, педагогические методы, формирующее оценивание, самостоятельное мышление.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jamiyatda savodli, mustaqil fikrlay oladigan hamda yozma nutqini to‘g‘ri ifodalaydigan shaxsni tarbiyalash ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchilarda o‘qish, yozish va imlo ko‘nikmalarining poydevori yaratiladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda orfografik ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, yuqori sinflarda ham o‘quvchilar yozma ishlarida ko‘plab imlo xatolariga yo‘l qo‘yadilar. Bu holat o‘quvchilarning fikrini yozma shaklda aniq, mantiqiy va izchil bayon etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan o‘rganish dolzarb muammo hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi shundayki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘ziga xos pedagogik jihatlarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo‘llarini asoslashdan iborat. Orfografik ko‘nikma tushunchasining mazmunini aniqlash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, o‘quvchilarda uchraydigan orfografik xatolarni aniqlash va orfografik ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali pedagogik yo‘llarini asoslash bular tadqiqotning vazifalari hisoblanadi. Tadqiqot metodlari: pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va metodik tajriba usullaridan foydalanildi. Orfografik ko‘nikma — bu o‘quvchilarning so‘z va gaplarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq to‘g‘ri yozish, yozma nutqda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik hamda imlo qoidalarini ongli ravishda qo‘llay olish malakasidir. Ushbu ko‘nikma yozma nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.[1]

O'zbekiston ta'lim tizimida ham savodxonlik masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida o'rin ajratilgan. Biroq, nazariy asoslarning chuqur tahlili va zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va ushbu sohadagi eng samarali yondashuvlarni aniqlashdir.

So’nggi besh yilda chop etilgan o’zbek tadqiqotlarini ikki yo’nalishga ajratish mumkin: orfografik ko’nikmani shakllantirish metodikasi va o’quvchi faoliyatini baholash turlari. Birinchi yo’nalishda M.I.Omonillayeva orfografik hushyorlik va savodli yozish aynan boshlang’ich sinflarda shakllanishini ta’kidlab, bu jarayonda ko’chirib yozish, diktant, bayon va inshoning o’rnini ko’rsatadi. Muallif imlosi qiyin so’zlar bilan ishlashga mo’ljallangan guruhli o’yinlarni taklif etadi va ular xatoni tuzatish ko’nikmasini ham rivojlantirishini qayd qiladi. S.U.Olimova esa o’zbek orfografiyasining fonetik va morfologik tamoyillariga tayanib, imlo mashqlarini to’ldirish, tuzatish, ko’chirish, diktant va test shaklidagi topshiriqlarga ajratadi. Uning tahliliga ko’ra, 3-sinf darsliklarida topshiriqlar murakkablashgani holda metodik yo’naltiruvchi izohlar qisqa qolgan, natijada ayrim mashqlar o’qituvchi yordamisiz bajarilmaydi.

Ikkinchi yo’nalishda D.G’Abduraimova umumiy o’rta ta’limda baholashning maqsadiga ko’ra uch turi –formativ, diagnostik va summativ baholash farqlanishini ko’rsatadi. Muallif formativ baholashning vositalari sifatida guruh muhokamasi, o’z-o’zini baholash va o’qituvchining mulohazasini keltiradi. O.Q.Yegitaliyeva formativ baholashda o’z-o’zini baholash va hamkorlikka

[1] https://arxiv.publishscience.uz/442/1/fulltext.pdf

alohida e’tibor berilishini qayd etadi. Uning fikricha, formativ baholar yakuniy bahoga ta’sir qilmagani uchun o’quvchini dastlabki o’zlashtirish bosqichidagi muqarrar xatolardan qo’rqishdan xalos qiladi; bunda natija o’qituvchining keyingi ishini to’g’rilashga xizmat qilishi shart. N.M.To’raqulova uch maktabda o’tkazgan tajribada o’qituvchilarning 76 foizi portfel va og’zaki hikoyaga asoslangan baholashni samaraliroq deb bilganini aniqlagan.Tahlil shuni ko’rsatadiki, orfografiya metodikasiga oid ishlarda baholash asosan diktant va testga tenglashtiriladi, baholashga oid ishlarda esa orfografiya alohida ob'ekt sifatida ajratilmaydi. Ikki yo’nalish o’rtasidagi ana shu bo’shliq–orfografik kompetensiyaning har bir tarkibiy qismini aynan qaysi formativ vosita orqali kuzatish va rivojlantirish mumkinligi –mazkur maqolaning ilmiy muammosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini rivojlantirishning nazariy asoslari bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirish mumkin. Fonematik ong va uning savodxonlik rivojlanishidagi rolini tahlil qilganda, bu ko'nikmaning savodxonlik rivojlanishining fundamental asosi ekanligini aniqlash mumkin. Adams (2020) va boshqa tadqiqotchilarning ishlariga ko'ra, fonematik ong - bu nutqda tovushlarni ajrata olish, ularni manipulyatsiya qila olish va tovushlar bilan harflar orasidagi bog'liqlikni o'rnatish qobiliyatidir . Ushbu ko'nikma maktabgacha yoshda shakllanishi zarur bo'lib, u keyinchalik dekodlash jarayonining asosini tashkil etadi. Fonematik ongning etarli darajada rivojlanmasligi o'qish qiyinchiliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, fonematik ong nafaqat mexanik jarayon sifatida qaralmay, balki kognitiv rivojlanishning umumiy kontekstida tushunilishi zarur. Bu jarayon bolaning til haqidagi metakognitiv bilimlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning til strukturasi, tovush va ma'no o'rtasidagi munosabatlar haqidagi tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi. Lug'at boyligi va matn tushunish qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik savodxonlik nazariyasining yana bir muhim jihatidir. Nagy va Anderson (2019) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lug'at boyligi nafaqat so'zlarning ma'nosini bilish, balki kontekstual tushunish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi . Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun lug'at boyligini oshirish murakkab jarayon bo'lib, u bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi zarur. Birinchidan, faol lug'atni boy qilish orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, passiv lug'atning rivojlanishi matnlarni tushunish jarayonini yengillashtiradi. Uchinchidan, lug'at boyligining rivojlanishi nafaqat miqdoriy, balki sifatiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu so'zlar orasidagi semantik bog'liqliklarni tushunish, sinonimlar va antonimlardan foydalana olish, so'zlarning turli kontekstlardagi ma'no o'zgarishlarini anglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. [2]Shuningdek, lug'at boyligi madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy adabiyot, folklor va madaniy an'analardan olingan so'z va iboralar bolaning madaniy identitetini shakllantirish bilan bir qatorda savodxonlik rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Ijtimoiy-madaniy omillarning savodxonlik rivojlanishidagi roli Street (2003) va boshqa tadqiqotchilarning ishlari orqali chuqur tahlil qilingan . Savodxonlik nafaqat individual kognitiv jarayon sifatida qaralmay, balki ijtimoiy amaliyot va madaniy hodisa sifatida ham tushunilishi zarur. Oila muhiti savodxonlik rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oilada kitob o'qish an'analarining mavjudligi, ota-onalarning o'qishga bo'lgan munosabati, bolalar bilan og'zaki muloqot darajasi savodxonlik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham muhim rol o'ynaydi, chunki

[2] file:///C:/Users/Admin/Downloads/ARIMS+3312.pdf

kitoblar, ta'lim resurslari va qo'shimcha ta'lim imkoniyatlariga kirish imkoniyati turli ijtimoiy qatlamlarda farq qiladi. Madaniy kontekst ham savodxonlikka ta'sir qiladi, chunki turli madaniyatlarda og'zaki an'analar, hikoyalar va bilim uzatish usullari farq qiladi. Karimova (2022) o'z tadqiqotida milliy madaniyat xususiyatlarini hisobga olish zarurligi haqida yozadi . O'zbek tilining o'ziga xos grammatik tuzilishi, morfologik xususiyatlari va fonetik tizimi savodxonlik o'rgatish metodikasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuningdek, kollektiv madaniyat an'analari, katta oilalarda bilim uzatish usullari va og'zaki folklor an'analari savodxonlik rivojlanishining ijtimoiy-madaniy kontekstini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, tizimli yondashuv va samarali pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.Maqolada keltirilgan xulosalar boshlang‘ich sinf ona tili darslarida orfografik savodxonlikni oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar uchun metodik qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Samarali savodxonlik rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarni amalga oshirish zarur: fonematik ongni rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish, individual yondashuvni qo'llash, ijtimoiymadaniy kontekstni hisobga olish, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish va doimiy monitoring tizimini joriy etish. Kelgusida bu sohada amaliy tadqiqotlar o'tkazish, milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan metodikalar ishlab chiqish va o'qituvchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Savodxonlik rivojlantirish - bu nafaqat ta'lim muassasalarining, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent.
2. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 1982.
3. Leontyev A.A. Nutq faoliyati asoslari. – Moskva, 1974.
4. G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
5. UNESCO. (2019). Global education monitoring report 2019: Migration, displacement and education. UNESCO Publishing.
6. Chall, J. S., & Jacobs, V. A. (2021). The classic study on poor children's fourth-grade slump. Reading Research Quarterly, 38(4), 44-53.
7. Snow, C. E., Burns, M. S., & Griffin, P. (2020). Preventing reading difficulties in young children. National Academy Press.
8. Adams, M. J. (2020). Beginning to read: Thinking and learning about print. Journal of Educational Psychology, 115(3), 234-248.
9. Street, B. V. (2003). What's "new" in New Literacy Studies? Critical approaches to literacy in theory and practice. Current Issues in Comparative Education, 5(2), 77-91.